



Topishmoqlarning javobini toping.
Javoblardagi birinchi bo'g'inlardan so'z hosil qiling.

1. Ikki singil, og'ir-yengil.
2. Qirg'oq bilan suv o'rtasida nima bor?
3. U xarita ham mato,
Qani, o'ylab ko'r birpas,
Topolsang, nomi ...



Tabiat mo'jizalari

Olamda insoniyat tomonidan yaratilgan qanchadan qancha mo'jizalar bor. Antiqa inshootlar, binolar, go'zal bog'lar. Ammo tabiatning asl tabiiy mo'jizalarini ko'rganimizda chindan ham lol qolamiz. Sayyoramizda hali ochilmagan qancha sirlar bor ekan?..

Katta kanyon – dunyodagi eng chuqur va keng maskanlardan biridir. U AQSHning Arizona shtatidagi Kolorado yassitog'larida joylashgan. Uning uzunligi 446 *km*. Eni 6 *km* dan 29 *km* gacha cho'ziladi. Chuqurligi esa 1800 *m*.

Amazonka dunyoning eng sersuv daryosi bo'lib, Janubiy Amerikada joylashgan. Maranon va Ukayali daryolari birlashuvidan hosil bo'lgan. Amazonkaning uzunligi ilmiy doirada bahsli sanaladi. Bu borada turli

qarashlar mavjud: Maranon manbalarida 6400 *km*, Apachet manbalarida 6992 *km*, Ukayali manbalarida esa 7100 *km* deb berilgan. Amazonka uzunligi bilan Nilga qiyoslanadi. Daryoning yillik suv sig'imi 6937 *km*³, ya'ni sutkasiga taxminan 19 *km*³ suv oqadi. 2011-yilda butun dunyo tanlovida Amazonka dunyo mo'jizalari qatoriga kirgan.




Sayyoramizdagi eng baland cho'qqi bo'lmish **Everest** dengiz sathidan 8848 *m* balandlikda joylashgan. U Himolay tog' tizmasiga mansub bo'lib, Xitoy va Nepalga chegaradosh. Uzoq vaqt davomida tog' balandligini aniq o'lchash qiyin bo'lgan. Nepal tadqiqotchilarga o'z hududlariga kirishlariga izn bermagan. Shu sababli boshqa davlatlar ko'p asrlik tog' – Jomolungma haqida hech nima bilmagan.

Viktoriya – Janubiy Amerikadagi Zambeziya daryosida joylashgan sharshara. Viktoriya dunyodagi eng katta sharshara deb tan olingan. U Niagara sharsharasidan ikki baravar baland, eniga ham undan kattaroq. Sharsharadan oqib tushayotgan suv tomchilari 400 *m* balandlikkacha otiladi. Uni 50 *km* naridan ham ko'rish mumkin.



Sahroyi Kabir – yer yuzidagi eng katta cho'l. Uning maydoni deyarli 9 mln km², bu deyarli AQSHdan biroz kichik hududga tengdir. Sahroyi Kabir Shimoliy Afrikada, o'nga yaqin davlat hududida joylashgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, taxminan 6000 yil avval Sahroyi Kabirda daraxtlar o'sgan va ko'plab ko'llar bo'lgan.



Sahroyi Kabirda har yili 160 mingga yaqin sarob hosil bo'ladi. Ular muntazam va vaqtinchalik hamda vertikal va gorizontaal shaklda bo'ladi. Hatto ayrim yerlarda karvon yo'llari uchun maxsus xaritalar ham shakllantirilgan, o'sha yerlarda saroblar ko'rinadi. Ushbu xaritalarda voqa, palma o'rmonlari, tog' tizmalari ko'rinishi aks etgan.

“Yosh bilimdon” ensiklopediyasidan



1. Qanday tabiat mo'jizalari haqida bilib oldingiz?
2. Tabiat mo'jizalarini bunday atalishiga sabab nima deb o'ylaysiz?
3. Amazonka daryosi qaysi daryoga qiyoslanadi?
4. Nima uchun uzoq vaqt odamlar Jomolungma haqida hech nima bilmaganlar?
5. Sahroyi Kabir avval qanday ko'rinishda bo'lgan?
6. Qanday sharsharalar nomini bilib oldingiz?



sarob – xayoliy manzara



To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

1. Katta kanyon – Janubiy Amerikada joylashgan.
2. Sahroyi Kabir – AQShda joylashgan.
3. Amazonka daryosi – Janubiy Amerikada joylashgan.
4. Viktoriya sharsharasi – Xitoy va Nepalga chegaradosh.
5. Everest – Himolay tog' tizmasiga mansub.



Berilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha jadval tuzing.

Janubiy Amerika

Amazonka

...

...



Qo'shimcha manbalardan tabiat mo'jizalari haqida ma'lumotlar toping. Uni o'rganganlaringiz bilan solishtiring.